

3-§. Adobe Photoshopda tasvir maydonlarini tanlash va o'zgartirish

Adobe Photoshop dasturida tasvirdagi kerakli sohani ajratib olish, mayda detallar bilan ishlash jarayonlarida tasvir ko'rinishini bir necha marta kattalashtirish yoki kichiklashtirishga to'g'ri keladi. Tasvirga kiritilgan o'zgartirishlar sifatli chiqishi uchun ayni ushbu amaldan foydalaniladi. Navigator paneli asosan tasvir masshtabini o'zgartirish va boshqarish uchun xizmat qiladi. Agar Navigator paneli Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgan vaqtda ekranda mavjud bo'lmasa, uni faollashtirish uchun **Окно** menyusidan **Навигатор** bandi tanlanadi.

Rastrli tasvirning alohida sohasini ajratib olish, ya'ni, uni tashkil etgan bir necha milliongacha piksellarni birma-bir tanlab chiqishning imkoni yo'q. Shu sababli rastrli tasvirlarda, ularning bir bo'lagini ajratib olish uchun bu bo'lak (soha) ning chegaralarini ajratib olish kerak bo'ladi.

Bu amalni bajarish uchun Photoshopda bir qator uskunalar yoki asosiy menyuning **Выделение** bo'limida tasvir bo'lagini ajratish uchun ishlatiladigan buyruqlardan foydalanish mumkin.

Tasvirni to'liq ajratib olish uchun uni Microsoft Office ilovalarida bajarilgani kabi **Ctrl+A** (**All** – barchasi so'zidan olingan) qo'sh tugmalari yordamida yoki asosiy menyudan **Выделение→Все** ketma-ketligini bajarish orqali ham amalga oshirish mumkin. Tasvirning ajratilgan qismi chegarasida harakatlanadigan uzug chiziq paydo bo'ladi.

Ajratishni bekor qilish uchun **Ctrl+D** qo'sh tugmalaridan foydalanish yoki asosiy menyudan **Выделение→Отменить выделение** ketma-ketligini bajarish orqali ham amalga oshirish mumkin.

Ajratish uskunolari uskunalar panelida birinchi guruhida joylashgan bo'lib, uning ustida sichqonchaning o'ng tugmasi bosilsa, bu tugmaga mos kelgan to'rtta uskuna ro'yxati paydo bo'ladi. Bular, **Прямоугольная область**, **Овальная область**, **Область (горизонтальная строка)** va **Область (вертикальная строка)** uskunalaridir:

■ □	Инструмент "Прямоугольная область"	М
○	Инструмент "Овальная область"	М
==>	Инструмент "Область (горизонтальная строка)"	
	Инструмент "Область (вертикальная строка)"	

2.1-rasm. Birinchi turdagi ajratish uskunolari.


Прямоугольная область uskunasi – to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishidagi sohani ajratishda foydalaniladi.

Овальная область uskunasi – ellips ko‘rinishidagi sohani ajratishda foydalaniladi.

Область (горизонтальная строка) – piksellarning gorizontal satrini ajratishda foydalaniladi.

Область (вертикальная строка) – piksellarning vertikal qatorini ajratishda foydalaniladi.


Biror bir sohani ajratib olish uchun sichqonchanning chap tugmasini bosib, ajratiladigan sohaning bir burchagidan ikkinchi burchagiga o‘tish va tugmani qo‘yib yuborish lozim:



2.2-rasm. Ajratilgan sohalardan namunalar.

Soha ajratilgach, yana bir marta yangi soha ajratilsa, oldingi ajratilgan soha bekor qilinadi va o‘rnida yangi ajratilgan soha paydo bo‘ladi. Navbatdagi soha ajratilayotgan paytda klaviaturadagi **Shift** tugmasi bosib turilsa, eski va yangi sohalar birlashtiriladi va hosil bo‘lgan soha ajratiladi. Agar yangi soha ajratishda **Alt** tugmasi bosib turilsa, yangi ajratilgan soha eskisidan ayirib tashlanadi. Yangi sohani ajratishda **Alt+Ctrl** qo‘sh tugmalari bosib turilsa, yangi va eski sohaning kesishmasi ajratib olinadi.

Ajratish uskunalaridan birortasi tanlanganda xususiyatlar satrida, ularning parametr paneli paydo bo‘ladi. Parametrlar panelining ko‘rinishi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan:





2.3-rasm. Ajratish uskunasiining parametrlar paneli.

Undagi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi tugmalar mos ravishda hech qaysi tugmani bosmasdan, **Shift**, **Alt** va **Shift+Alt** tugmalarini bosib turib sohani ajratishga to'g'ri keladi. Ya'ni klaviaturadagi tugmalarni bosib turish o'rniga parametrlar panelidagi tugmani bir marta bosib qo'yish mumkin.


Oval ko'rinishidagi sohalarni ajratish ham shu kabi amalga oshiriladi. Shuningdek, to'rtta ajratish uskunalaridan bitta murakkab sohani ajratishda ham foydalanish mumkin.

Ajratilgan sohalardan namunalar quyidagi rasmlarda keltirilgan:



2.4-rasm. Ajratilgan sohalardan namunalar.

Photoshopda yana bir nechta ajratish uskunolari bo'lib, ular **Лассо**, **Прямолинейное лассо**, **Магнитное лассо** deb ataladi:



2.5-rasm. Ikkinchi turdagi ajratish uskunalari.


Ularning barchasi uskunalar panelida bitta **Лассо** tugmasi ostida yashiringan. Ularni bu tugma ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosib, paydo bo'lgan ro'yxatdan tanlash yoki ularga mos qo'yilgan klaviaturaning **L** harfini bir yoki bir necha marta bosish bilan tanlash mumkin.

Лассо uskunasi tanlanganda sichqonchani chap tugmasini bosib turib, sichqoncha yurgiziladi. Hosil bo'lgan trayektoriya zanjir kabi namoyon bo'ladi. Chap tugmani qo'yib yuborish bilan zanjirning boshlang'ich va yakuniy nuqtalari birlashtiriladi. Hosil bo'lgan yopiq chiziqli o'rab turgan soha ajralib qoladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar asosida quyidagi topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.


1-topshiriq. Loyiha oynasiga turnalar rasmini hosil qilib, ular sonini ko'paytirish.

1. Kompyuter xotirasida joylashgan turna rasmi loyiha oynasiga yuklanadi. Buning uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi bosiladi va xotiradagi rasm tanlanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi:



2.6-rasm. Kompyuter xotirasidan yuklangan fayl.

2. Turnalardan birini belgilab olib, ya'ni **Alt** tugmasi bilan birgalikda **Lasso** uskunasi yordamida ajratib olinadi:



2.7-rasm. Lasso uskunasi yordamida ajratilgan soha.

3. Klaviaturadan **Ctrl+C** qo'sh tugmalari bilan nusxalab, **Ctrl+V** qo'sh tugmalari bilan loyiha oynasiga joylashtiriladi.

4. Bundan so'ng, sichqoncha chap tugmasini bosgan holda surib kerakli joyga o'tkaziladi. Natijada rasmdagi uchta turna bittaga ko'payadi. Tavsiya sifatida shuni aytib o'tish lozimki, har safar belgilangan soha nusxasini **Ctrl+V** qo'sh tugmalari yordamida rasimga qo'shgach, uning o'rni kerakli joyga o'tkazish talab etiladi:



2.7-rasm. Obyektlar soni ko‘paygandagi holat.

Adobe Photoshop dasturining **Прямолинейное лассо** uskunasi yordamida chegaralari to‘g‘ri chiziqli kesmalardan iborat bo‘lgan obyektlarni, masalan binolarni, televizorlarni yoki ularning ekranlarini, ajratib olish uchun qulay hisoblanadi.

2-topshiriq. Rasmdagi bir nechta binolardan birini ajratib olish.

1. Kompyuter xotirasidagi rasm loyiha oynasiga joylashtirish uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi tanlanadi va xotiradagi rasm belgilanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi:




2.8-rasm. Kompyuter xotirasidan yuklangan fayl.

2. Bundan so‘ng, **Лассо** uskunasi tanlanib, sichqonchaning chap tugmasini binoning pastki burchagidan boshlab, har bir qayrilish burchagiga bir martadan bosib chiqiladi va birinchi bosilgan burchak ustiga qaytib tugmani ikki marta bosiladi. Natijada rasmdagi bino ajratib olinadi:



2.9-rasm. Лассо uskunası yordamida ajratilgan soha.

3. Ajratib olingan sohani olib tashlash uchun klaviaturadagi **Delete** tugmasi bosiladi. Natijada ekranda **Заполнить** oynasi paydo bo‘ladi:



2.10-rasm. Заполнить oynasi.

4. Muloqot oynasining **Использовать** maydonidan **Черный** bandi tanlanadi va **OK** tugmasi bosiladi. Natijada rasmda belgilangan bino o‘rniga qora rangli soha paydo bo‘ladi:



2.11-rasm. Ajratilgan sohani qora rangda tasvirlash.


Uchinchi uskuna **Магнитное лассо**dan chegarasida fondan keskin ajralib turgan obyektlarni ajratib olishda foydalaniladi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu zanjir magnet kabi obyektning chegarasiga yopishib qoladi va obyektни ajratib olishni soddalashtiradi.

3-topshiriq. Berilgan rasmdan tarvuz chegarasini **Магнитное лассо** uskunasi yordamida to‘liq belgilab olish.

1. Kompyuter xotirasidagi tarvuz rasmini loyiha oynasiga joylashtirish uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi tanlanadi va xotiradagi rasm belgilanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi.

2. Chegarani belgilashni boshlash uchun, uning biror nuqtasida sichqonchanning chap tugmasi bir marta bosiladi.

3. Sichqonchani chegara bo‘ylab harakatlantirish natijasida, yangi tugunlar paydo bo‘la boshlaydi. Noto‘g‘ri joylashgan tugun **BackSpace** tugmasi yordamida olib tashlanadi. Bu harakat qancha sekinlik bilan bajarilsa, sohani belgilash shunchalik samarali yakunlanadi. Chegara aniq bo‘lmagan joylarda navbatdagi tugunlarni sichqonchanning chap tugmasini bosish orqali hosil qilish ham mumkin:



2.12-rasm. Магнитное лассо uskunasidan foydalanib ajratilgan soha.

4. Ajratishni tugatish uchun sichqonchani ajratish boshlangan nuqtaga olib kelish yoki bu nuqta atrofida sichqonchanning chap tugmasini ikki marta bosish yetarli.


Adobe Photoshopda tasvir bo‘lagini ajratib olishning yana bir usuli, bu **Волшебная палочка** uskunasidan foydalanishdir. Bu uskuna nomidan ham ko‘rinib turibdiki, u mo‘jizalar yarata oladi. Bu uskuna tanlanib, tasvirning biron-bir nuqtasiga tekkizilsa, bu nuqtaning atrofidagi rangi tanlangan nuqta rangiga yaqin bo‘lgan barcha piksellarni ajratib oladi.

4-topshiriq. Rasmdan tanlangan nuqta rangiga yaqin bo‘lgan barcha piksellarni ajratib olish.

1. Kompyuter xotirasidagi rasm loyiha oynasiga joylashtirish uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi tanlanadi va xotiradagi rasm belgilanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi.

2. Bu uskuna ustiga sichqonchaning o'ng tugmasi bosiladi va paydo bo'lgan ro'yxatdan **Волшебная палочка** bandi tanlanadi.

3. Sichqoncha chap tugmasi rasmning ixtiyoriy joyiga bir marta bosiladi. Natijada quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi:



2.13-rasm. Волшебная палочка uskunasiidan foydalanib ajratilgan soha.

Волшебная палочка uskunasi klaviaturadan **W** tugmasini bosish orqali ham tanlash mumkin.

Odatda rasmdagi fon bir biriga yaqin bo'lgan turli ranglardan iborat bo'ladi. Bu rasmdagi fon bir xil bo'lgani uchun ham fonni ajratib olish oson bajariladi. Yaqin ranglardan qanchasini ajratib olish, parametrlar oynasidagi **Допуск** maydonidan foydalanib belgilanadi. Bu qiymat kattalashsa, ajratib olinadigan ranglar soni ham ortadi.


Bu parametrni kattalashtirgandan ko'ra, fonni bir necha joyini tanlab ajratish yaxshiroq natija beradi. Bunda fonning keyingi nuqtasini tanlashda **Shift** tugmasi bosib turilsa, ajratib olingan bo'lak oldingisi bilan birlashtiriladi.

5-topshiriq. Rasmdagi suv bor sohani belgilab olish.

1. Kompyuter xotirasidagi rasm loyiha oynasiga joylashtirish uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi tanlanadi va xotiradagi rasm belgilanib, muloqot oynasidagi **Открыть** tugmasi bosiladi.

2. **Волшебная палочка** uskunasi tanlanib, suv bor sohaga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Shunda suvning ma'lum qismi belgilanadi.

2. Klaviaturaning **Shift** tugmasi bosilgan holda, suvning pastki qismiga ham sichqoncha chap tugmasi bir marta bosiladi. Natijada suvning to'liq qismi belgilanadi:



2.14-rasm. Волшебная палочка uskunasida yordamida ajratilgan sohani kengaytirish.

Быстрое выделение uskunasidan ham shu kabi amallarni bajarishda foydalaniladi. Lekin unda soha qadamma-qadam tanlab boriladi. Bunda kattaroq sohani belgilash kerak bo'lsa, sichqonchani chap tugmasini bosib turib sudrash lozim bo'ladi.

6-topshiriq. Rasm fonini ajratib olish va o'chirish.

1. Kompyuter xotirasidan tabiatdagi ot rasmi loyiha oynasiga joylashtiriladi. Buning uchun **Файл** menyusining **Открыть** (Ctrl+O) bandi tanlanadi va xotiradagi rasm belgilanib, muloqot oynasidan **Открыть** tugmasi bosiladi.


2. Bundan so'ng, **Быстрое выделение** uskunasida tanlanib, otning atrofiga sichqoncha chap tugmasi astalik bilan bir necha marta bosiladi. Shunda rasmning ma'lum qismi ajratiladi:



2.15-rasm. Быстрое выделение uskunasidan foydalanib ajratilgan soha.

3. Ajratilgan sohani o'chirishning ikkita usuli mavjud. Birinchisi, **Delete** tugmasini tanlash orqali **Заполнить** oynasi faollashtiriladi. Uning **Содержимое**

bo‘limi **Использовать** ro‘yxatidan **Цвет фона** va **Фоновый цвет** bandlarini tanlash orqali, rasm fonini uskunalar panelining quyi qismida tanlangan rangga va **Цвет** bandi yordamida rang beriladi. Bundan tashqari oq, qora yoki kulrang rangga ham bo‘yash mumkin:



2.16-rasm. Заполнить oynasi.

Ikkinchi usulda esa, rasm fonini o‘zgartirish uchun **Ctrl+Delete** qo‘sh tugmalarini tanlash orqali bajarish mumkin. Unda **Фоновый цвет** uskunasi qanday rang tanlangan bo‘lsa, shu rangga bo‘yaladi. Ushbu rasm fonini almashtirish uchun **Ctrl+Delete** qo‘sh tugmalarini tanlash orqali, oq rangga bo‘yash buyrug‘i bajarilgan:



2.17-rasm. Belgilangan sohaning foni almashtirilgan holat.


4. Shundan so‘ng, **Быстрое выделение** uskunasi yana tanlanadi va otning atrofida ajratilmagan sohalar belgilanadi. Belgilash jarayonida otning ayrim qismlari qo‘shilib ketishi ham mumkin. Unda ajratilgan sohani kichraytirish uchun **Alt** tugmasi, kattalashtirish uchun esa **Shift** tugmasi bilan sichqoncha chap tugmasini birgalikda bosish talab etiladi. Shunda rasmning foni to‘liq ajratiladi:




2.18-rasm. Rasmning to‘liq foni almashtirilgan holat.

Savollar va mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Belgilash uskunalarining imkoniyatlari haqida ma’lumot bering.
2. Sohalarni belgilashda **Shift**, **Ctrl** va **Alt** tugmalari qanday vazifalarni bajaradi?
3. Quyidagi rasmda berilgan: kvadrat, aylana, oval, ko‘pburchak, bulut shakllarini belgilash uskunolari yordamida hosil qiling.



4. Quyidagi rasmdagi osmonni bulut bilan to‘ldiring.



5. Rasmdagi maydonni archalar nusxasi bilan to‘ldiring.

